

## “TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston davlat  
san’at va madaniyat instituti rektori

N.B.Sayfullayev

2025-yil “30”



### Aktyorlik san’ati: qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi ta’lim yo‘nalishiga ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limga qabul qilish imtihoni

#### BAHOLASH MEZONI

Talabgorning quyidagi amaliy ijrosi va nazariy bilimlari uchun umumiy maksimal 100 balgacha baholanadi. 67 va undan yuqori ball to‘plagan talabgor suhbatdan o‘tgan hisoblanadi.

Nº	Amaliy ijro	Maksimal ball
1.	<p>Talabgorning sahnaga mos tashqi ko‘rinishi va ijodiy salohiyati (insoniy jozibadorligi, ichki madaniyati, tabiat, yoshi, yoqimtoyligi va sahnadagi erkinligi, ayniqsa, qo‘g‘irchoq teatr san’atining texnik va sahnaviy xususiyatlari inobatga olinib, jismonan sog‘lom va harakatga mos bo‘lishi, bo‘yi 155–175 sm oralig‘ida bo‘lishi, talabgorning hayotiy tajribasi, voqe va hodisalarga bo‘lgan munosabati, tasavvurining rang-barangligi, ta’sirchanligi, obraz yaratishdagi badiiy ifoda imkoniyati va bu his-tuyg‘ularni sahnada ishonarli tarzda aks ettira olish salohiyati)</p> <ul style="list-style-type: none"><li><b>Masal</b> – hayvon xarakterlarini ochish, obrazli nutqiy ifoda orqali jonlantirish (I.V.Krilov, S.Mixalkov, M.Xudoyqulov, A.Obidjon va boshqalar); <i>0–5 ball</i></li><li><b>Monolog</b> – ayniqsa bolalar uchun yozilgan pyesalardan tanlangan qahramon nutqini obrazli va hissiy ifoda etish; <i>0–10 ball</i></li><li><b>She’r</b> – bolalar uchun mo‘ljallangan she’riy matnni sahnaviy ifoda bilan o‘qish; <i>0–5 ball</i></li><li><b>Qo‘sishiq</b> – ovoz tembri va eshitish qobiliyatini ifodalovchi musiqiy namuna; <i>0–5 ball</i></li><li><b>Raqs</b> – musiqani his qilish, ritmga tushish va sahnaviy plastika; <i>0–5 ball</i></li><li><b>Hayvonot olami (etyud)</b> – kuzatuv asosida biror hayvon obrazini harakat orqali ifodalash; <i>0–5 ball</i></li><li><b>Yakka etyud</b> – so‘zsiz, yakka holda turli sahnaviy</li></ul>	40

	holatlarnini yaratish (tasavvur va ichki harakat orqali). 0–5 ball	
2.	<p>Talabgorning qo‘g‘irchoqni boshqarish texnikasi, obrazga mos xatti-harakat topishi, harakat va ifoda uyg‘unligi, shuningdek, qo‘g‘irchoq bilan ishslashda tasavvur, plastika va ritmni his qilish qobiliyati quyidagi jihatlar asosida baholanadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Obrazga mos xatti-harakat topish</b> – qo‘g‘irchoq xarakteriga mos harakatni aniqlik bilan ifodalash, plastikaning aniq va mazmunli qo‘llanilishi; 0–10 ball</li> <li>• <b>Harakat va ovoz uyg‘unligi</b> – xarakterli nutq vositalari orqali jonli ifoda, qo‘g‘irchoqning plastikasiga mos ovoz va dramatik moslashuv; 0–10 ball</li> <li>• <b>Plastika va improvizatsiya</b> – erkin ifoda, qo‘g‘irchoq orqali holatni jonlantirish; 0–10 ball</li> <li>• <b>Musiqa va ritmni his qilish</b> – musiqa yoki shovqin bilan harakatni uyg‘unlashtirish. 0–10 ball</li> </ul>	40

### Og‘zaki

3.	<p>Talabgorning qo‘g‘irchoq teatr san’ati va madaniyat sohasi bo‘yicha nazariy bilimi, fikrlash madaniyati va umumiy dunyoqarashi quyidagi mezonlar asosida og‘zaki suhbat shaklida baholanadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Qo‘g‘irchoq teatri tarixi, turlari va asoschilari</b> – soha bo‘yicha asosiy bilim va tushunchalarga ega bo‘lish; 0–10 ball</li> <li>• <b>Madaniyat va san’at sohasidagi islohotlar, badiiy asarlar, spektakllar, teatr va aktyorlik san’ati haqida fikrlash qobiliyati</b> – dolzarb masalalarga munosabat bildirish, mutolaa madaniyati va badiiy tafakkur darajasi. 0–10 ball</li> </ul>	20
	<b>Jami</b>	<b>100</b>

### Qo‘yilgan talablarga talabgorning javobini baholash mezoni

Nº	Baholash mezonlari	Ball
1.	<p>Tanlangan repertuar — masal, monolog, she’r, qo‘sish, raqs, hayvonot olami etyudi va yakka etyudni talab darajasida ijro etishida quyidagilarga e’tibor beriladi hamda tegishli tartibda baholanadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Masal</b> – hayvon obrazlarini nutqiy ifoda orqali jonlantirish, xarakterlarning rang-barangligi;</li> <li>• <b>Monolog</b> – ayniqsa bolalar uchun yozilgan pyesalarga murojaat qilinganligi, tanlangan asardagi qahramonning</li> </ul>	1-5 6-15 16-20 21-25 26-30

	<p>hissiy dunyosini ochib berish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>She'r</b> – bolalar auditoriyasiga mos she'riy asarni badiiy va sahnaviy ohangda ifodalash;</li> <li>• <b>Qo'shiq</b> – musiqani eshitish, ovoz tembri, diapazon va musiqiy sezgirlik;</li> <li>• <b>Raqs</b> – sahnadagi erkin harakat, ritmga moslik, his-hayajonni harakat bilan yetkazish;</li> <li>• <b>Hayvonot olami (etyud)</b> – kuzatuv asosida hayvon xarakterini sahnaviy xatti-harakat orqali ochib berish;</li> <li>• <b>Yakka etyud</b> – yakka aktyorlik ijrosida sahnadagi holatni so'zsiz, tasavvur va harakatlar orqali jonlantirish.</li> </ul>	31-35 36-40
2.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Obrazga mos xatti-harakat topish:</b> qo'g'irchoq vositasida ijro etilgan xatti-harakatlarning xarakterga muvofiqligi; harakatning aniqligi va izchil ifodaliligi;</li> <li>• <b>Harakat va ovoz uyg'unligi:</b> qo'g'irchoq xatti-harakati va ovozning bir butun holda uyg'unlashganligi;</li> <li>• <b>Plastika va improvizatsiya:</b> harakatdagi erkinlik, tasavvur asosida yangi sahnaviy xatti-harakatni yaratish qobiliyati;</li> <li>• <b>Musiqani va ritmni his qilishi:</b> Musiqaga mos xatti-harakat qilganligi, ritmni sezish va sahnadagi ohangdorlikni ta'minlash darajasi.</li> </ul>	1-10 11-20 21-30 31-40
<b>Og'zaki</b>		
3.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <b>Qo'g'irchoq teatri tarixi, turlari va asoschilari:</b> talabgor qo'g'irchoq teatri san'atining kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari va asoschilari haqida asosiy tushunchalarga ega ekanligi, savollarga to'g'ri va aniq javob bera olganligi;</li> <li>• <b>Madaniyat va san'at sohasidagi islohotlar, badiiy asarlar, spektakllar, teatr va aktyorlik san'ati haqida fikrlash qobiliyati:</b> talabgor san'at va madaniyatdagi yangilanishlar, dolzarb jarayonlar, spektakl va badiiy adabiyotlar yuzasidan mustaqil fikr bildira olishi; mutolaa madaniyati va badiiy tafakkur darajasi orqali o'z dunyoqarashini ochib bera olishi bilan baholanadi.</li> </ul>	1-10 11-20

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi

S.Turatov